



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI  
BUYRUG'I**

---

2025-yil 22-iyul

268 - son

Toshkent sh.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi va  
nomli davlat stipendiyalari tanlovingin birinchi  
bosqichini o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 5-fevraldag'i "O'zbekistonning o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish choralari to'g'risida"gi PF-555-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktyabrdagi "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi 226-son qarori, Universitetda tahsil olayotgan iqtidorli talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanloviga jalb etish, tanlovnin yuqori saviyada, adolatli o'tkazilishini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. 2025/2026 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi, Beruniy, Alisher Navoiy nomli davlat stipendiyasi, Islom Karimov nomli davlat stipendiyasi va boshqa nomli stipendiya tanlovingin birinchi bosqichi o'tkazilsin.

2. Tanlovingin birinchi bosqichi "O'zbekiston tarixi" va "Chet tili" fanlaridan test va og'zaki suhbat bo'yicha imtihon asosida o'tkazilsin.

3. Tanlovingin birinchi bosqichini o'tkazish bo'yicha maxsus komissiya tarkibi I- ilovaga, Adolat komissiyasi tarkibi 2-ilovaga, tanlovnin o'tkazish jadvali 3-ilovaga va talabalar faoliyatini baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga nomzod talabalarining natijalarini baholash mezonlariga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ilmiy tadqiqot ishlari boshqarmasi boshlig'i (Sh.Reyimbayev) ga 3 kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarning universitet bosqichini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha zaruriy choralarni ko'rish vazifasi yuklatilsin.

5. Iqtidorli talabalar bilan ishslash yetakchi mutaxassisiga (G.Karimova) ga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanloviga hujjatlarni qabul qilish talablari, qabul davri, talab qilinadigan hujjatlar ro‘yxati va davlat stipendiyalari tanlovlarida ishtirok etish tartibi to‘g‘risida talabalarga ma’lumot berish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanloviga nomzodlarni saralash, ulaming yig‘ma jild hujjatlarini rasmiylashtirish va vazirlikka tavsiya etish jarayonini adolatli, shaffof o‘tkazilishini ta’minalash hamda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari va ularni taxsimlash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga qat’iy amal qilgan holda tashkil etish;

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga davogarlarning o‘zlashtirish ko‘rsatgichlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, erishgan yutuqlari va ularni asoslovchi hujjatlaming xaqiqiy ekanligini tekshirish choralarini ko‘rish, soxtalashtirish xolatlari aniqlanganda talabgorni tanlovdan chetlashtirish;

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanloving universitet bosqichini joriy yilning 24-25-iyul kunlari tashkil qilish hamda talabgorlar uchun sinovlar (O‘zbekiston tarixi va chet tili fanlari bo‘yicha) o‘tkazilishida shaffoflikni ta’minalashga qat’iy rivoja qilish;

sinovlardan muvaffaqqiyatli o‘tgan talabgorlarning hujjatlar yig‘ma jildini ko‘rib chiqish va keyingi bosqichga tavsiya etish uchun universitet kengashiga taqdim etish;

kengash tomonidan tavsiya etilgan nomzodlaming hujjatlarini stipendiya.edu.uz elektron platformasiga kiritish vazifalari yuklansin.

6. Barcha fakultet dekanlariga; fakultetlarda tahsil olayotgan iqtidorli talabalarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovi uchun hujjatlar qabuli boshlanganligi haqida xabardor qilish choralarini ko‘rish;

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga davogar talabalarning hemis platformasidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlash va talabgorlarga imzolangan, muhrlangan qaydnomasi (asliga to‘g‘ri tartibi bilan) berish;

tanlov jarayonlari uchun iqtidorli talabalarning hujjatlarini rasmiylashtirishda ilmiy rahbarlar mas’ulligini oshirish, xususan, talabalarning yig‘ma hujjatlar jildi (ma’lumotnomasi, tavsiyanoma, bugungi kunga qadar erishgan yutuqlari, ilmiy-ijodiy ishlari) qayd etilgan davlat stipendiyasiga munosib ekanligi, shuningdek, shtamp, muhr, blankalar tayyorlash va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarda sohtakashlikka yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha shaxsan ilmiy rahbarlari javobgar ekanliklari bo‘yicha umumiy nazoratni olib borish vazifalari yuklatilsin.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplens-nazorat tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i (M.Isakdjanov)ga tanlov jarayonlari davomida korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish (oldini olish) maqsadida korrupsiyaga qarshi targ‘ibot tadbirlari reja-jadvalini ishlab chiqish va shunga muvofiq muntazam ravishda profilaktik tadbirlarni tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

8. Universitet matbuot kotibi (M.Niyazova)ga Stipendiya tanloviga saralash boshlanganligi, talabgorlarning hujjatlarini qabul qilish bo‘yicha e’lonlarni hamda sohaga oid yangiliklarni universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari hamda ommaviy axborot vositalarida yoritish ishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

9. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar prorektori D.Mirjalilova zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor**



**B.Tulaganov**